



MOLIYAVIY SOHADAGI MOBIL ILOVALAR: TALABALAR UCHUN TAHLIL VA TAVSIYALAR

*Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti
Moliya sohasida boshqaruv yo`nalishi 2- bosqich talabasi*

Nasrullahayev Omonulloxon Nodirjon o`g`li

E-mail: omonulloxon0408@gmail.com

Tel: +99894987470

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada raqamli moliya vositalarining jadal rivojlanishi fonida moliyaviy sohadagi mobil ilovalarning talaba yoshlar orasidagi roli, ulardan foydalanish darajasi va samaradorligi keng qamrovda tahlil qilinadi. Bugungi kunda “Payme”, “Click”, “Bank ilovalari (Ipotekabank, Ipak Yo`li, Hamkorbank va b.)” kabi xizmatlar orqali moliyaviy operatsiyalarni tezkor, xavfsiz va qulay tarzda amalga oshirish imkoniyati mavjud. Ushbu jarayon ayniqsa talaba yoshlar uchun muhim, chunki ular o‘zining kundalik moliyaviy qarorlarini oson va samarali boshqarishga intilmoqda. Aksariyat talabalar mobil ilovalar orqali to‘lovlarni amalga oshirish, hisobni yuritish va mablag‘larni boshqarish imkoniyatlaridan faol foydalanmoqda. Ammo, ayrim muammolar ya`ni internetga bog‘liqlik, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi, texnik nosozliklar va moliyaviy savodxonlik yetishmasligi kabi holatlar ham talaba yoshlar orasida tez-tez yuzaga kelmoqda. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida talabalarning moliyaviy savodxonligini oshirish, mobil ilovalarni ta’lim tizimi bilan integratsiyalash, foydalanuvchi interfeysi soddallashtirish va xavfsizlik tizimini mustahkamlash bo‘yicha takliflar bildirilgan. Mazkur tadqiqot natijalari moliyaviy texnologiyalarni yanada takomillashtirish, talabalar ehtiyojiga mos xizmatlarni rivojlantirish, moliya sohasidagi mobil ilovalarni yanada rivojlantirish va zamonaviy usullarini shakillantirishga xizmat qiladi.



МОБИЛЬНЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ В ФИНАНСОВОЙ СФЕРЕ: АНАЛИЗ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной научной статье подробно анализируется роль, уровень использования и эффективность мобильных приложений в финансовой сфере среди студенческой молодежи на фоне стремительного развития цифровых финансовых инструментов. Сегодня Payme, Click, банковские приложения (Ipotekabank, Ipak Yo'li, Hamkorbank и др.) "есть возможность быстро, безопасно и удобно совершать финансовые операции с помощью таких сервисов. Этот процесс особенно важен для студенческой молодежи, поскольку она стремится легко и эффективно управлять своими повседневными финансовыми решениями. Большинство студентов активно пользуются возможностью совершать платежи, вести учет и управлять средствами через мобильные приложения. Однако некоторые проблемы, такие как интернет-зависимость, безопасность личных данных, технические сбои и отсутствие финансовой грамотности, также часто возникают среди студенческой молодежи. В ходе анализа данной статьи были высказаны предложения по повышению финансовой грамотности студентов, интеграции мобильных приложений с системой образования, упрощению пользовательского интерфейса и укреплению системы безопасности. Результаты данного исследования послужат дальнейшему совершенствованию финансовых технологий, развитию услуг, ориентированных на потребности студентов, дальнейшему развитию и формированию современных методов мобильных приложений в финансовой сфере.

MOBILE APPLICATIONS IN THE FINANCIAL SECTOR: ANALYSIS AND RECOMMENDATIONS FOR STUDENTS

Abstract. Against the background of the rapid development of digital financial instruments, this scientific article analyzes the role of mobile applications in the



financial sphere among student youth, the level and effectiveness of their use in a wide range. Today, "Payme", "Click", "Bank applications (Ipotekabank, Ipak Yo`li, Hamkorbank, etc.)" through services such as the ability to conduct financial transactions in a fast, safe and convenient way. This process is especially important for student youth, as they strive to easily and effectively manage their daily financial decisions. Most students are actively using the possibilities of making payments, maintaining an account and managing funds through mobile applications. However, some problems such as internet dependence, personal data security, technical failures, and lack of financial literacy are also frequent among student youth. In the process of analyzing this article, proposals were made to increase the financial literacy of students, integrate mobile applications with the educational system, simplify the user interface and strengthen the security system. The results of this study serve to further improve financial technologies, develop services appropriate to the needs of students, further develop mobile applications in the field of Finance and shape modern methods.

Kalit so`zlar: moliyaviy mobil ilovalar, raqamli to`lov tizimlari, budjetlashtirish ilovalari, moliyaviy texnologiyalar (*fintech*), elektron to`lovlar, raqamli xavfsizlik.

KIRISH

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida mobil ilovalar hayotimizning barcha jabhalariga, xususan, moliyaviy soha va shaxsiy moliyani boshqarish tizimiga ham chuqur kirib keldi. Ayniqsa, talabalar orasida mobil moliyaviy ilovalardan foydalanish darajasi ortib bormoqda, chunki bu ilovalar ularning kundalik xarajatlarini nazorat qilish, byudjet tuzish, hisob-kitoblarni yuritish hamda to‘lovlarni tez va qulay amalga oshirish imkonini beradi. Mobil bank ilovalari, elektron to`lov tizimlari (Payme, Click), investitsiya kuzatuvchi dasturlar (masalan, Revolut, Binance, Quppy), shuningdek, budjet nazorati va tejashga yordam beruvchi ilovalar (Money Manager, Monefy,



CoinKeeper) talabalar uchun katta qulayliklar yaratmoqda. Bunday ilovalarning keng tarqalishi moliyaviy savodxonlikni oshirishga ham xizmat qilmoqda.¹ Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy talaba nafaqat bilim olish, balki moliyaviy mustaqillik sari qadam qo‘yishda ham raqamli vositalardan faol foydalanmoqda. Ushbu maqolada talabalar orasida moliyaviy mobil ilovalardan foydalanish holati, ularning afzallik va kamchiliklari, foydalanish darajasi, xavfsizlik masalalari va foydali tavsiyalar chuqur tahlil qilinadi.

Metodlar. Ushbu maqolada talabalar tomonidan moliyaviy mobil ilovalardan foydalanish holatini o‘rganish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, foydalanishni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, so‘rovnoma, statistik tahlil, amaliy misollar va SWOT-analiz metodlaridan foydalanilgan holda tahlil qilinadi.

Natijalar. Ushbu maqolaning taqdriqot jarayomida moliyaviy mobil ilovalar, raqamli to‘lov tizimlari, budgetlashtirish ilovalari bilan bog’liq raqamli xavfsizlik va shu turdagи texnologiyalar bilan mazkur maqola orqali tanishib chiqamiz.

Moliyaviy mobil ilovalar — bu raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan, smartfon yoki planshet orqali ishlovchi, foydalanuvchilarga real vaqt rejimida moliyaviy xizmatlar va operatsiyalarni masofadan boshqarish imkonini beruvchi mobil dasturlardir. Ushbu ilovalar yordamida foydalanuvchilar to‘lovlarни amalga oshirish, pul o‘tkazmalarini bajarish, shaxsiy byudjetni rejalashtirish va nazorat qilish, sarmoya kiritish, kreditlar bo‘yicha hisob-kitoblar olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.²

¹ OECD (2020). *Digital Financial Literacy: A Framework for OECD/INFE*.

<https://www.oecd.org/financial/education/digital-financial-literacy.pdf>

² <https://www.oecd.org/financial/education/digital-financial-literacy>



Mazkur ilovalar shaxsiy moliyaviy boshqaruvin soddalashtiradi, foydalanuvchiga vaqt va joydan qat'i nazar bank va to'lov xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa, yoshlari va talaba qatlamlari orasida bu ilovalar keng tarqalib, moliyaviy savodxonlik va mas'uliyatni oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

XXI – asr texnika asrida moliyaviy mobil ilovalarham jadal su'ratlarda rivojlanmoqda. Hozirgi kundagi mobil ilovalar bir nechta turlardan iborat bo'lib bular:

1. Mobil banking

- (masalan, Click, PayMe, Apelsin)

2. Byudjet boshqaruvi ilovalari

- (masalan, CoinKeeper, Money Manager, Monefy)

3. Sarmoyaviy ilovalar

- (masalan, Revolut, Robinhood, eToro)


4. Kriptohamyon ilovalari

- (Coinbase, Trust Wallet)

1-rasm. Moliyaviy mobil ilovalar turi.

(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Moliyaviy mobil ilovalar hozirgi paytda talabalar tomonidan, eng ko'p foydalaniyotgan mobil ilovalar orasidan, yuqori o'rirlarni egallamoqda. Moliyaviy mobil ilovalar, talabalarga juda ko'p moliyaviy, qulayliklarni taqdim etmoqda. Bular quyidagilardan iborat:



2-rasm. Moliyaviy mobil ilovalarning afzalliklari.

(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Moliyaviy mobil ilovalardan noto`g`ri foydalanish va moliyaviy bilim yetishmasligi natijasida turli xil noxushliklarham talaba yoshlar orasida yuzaga kelmoqda. Har bir narsaning afzaliklari bilan birga ma`lum bir miqdordagi kamchiliklariham mavjud. Moliyaviy mobil ilovalarning kamchiliklari quyidagilardan iborat:



3-rasm. Moliyaviy mobil ilovalar kamchiliklari.


(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)



Talaba yoshlar orasida moliyaviy mobil ilovalardan foydalanish vaqtida yuqoridagi muammolar yuzaga kelmasligi uchun raqamli xavfsizlik kabi texnologiyalar bunday holatlarda ularning xavfsizligini ta'minlamoqda.

Raqamli xavfsizlik — bu shaxsiy, korporativ yoki davlat miqyosidagi raqamli axborot va texnologik infratuzilmalarning ruxsatsiz kirish, buzilish, o'g'irlik, zararli dasturlar, va boshqa kiberxavf-xatarlar ta'siridan himoyalanishini ta'minlovchi chora-tadbirlar, usullar, siyosatlar va texnologiyalar majmuasidir.³

Raqamli xavfsizlik, keng ma'noda, quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:



4-rasm. Raqamli xavfsizlik komponentlari.

(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

³ <https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment>



Talaba yoshlar orasida yuzagan keladigan eng katta moliyaviy muammolardan biri bu budjetlashtirishdir ya'ni ular o'z mablag'larini tashkil etish, boshqarish, xarajatlarini nazorat qilish va shu turdag'i moliyaviy muammolar bilan tez-tez ro'baro bo'lishadi. Moliyaviy amaliyotlarni bajarishda talabalarga budjetlashtirsh juda zarur. Hozirgi davrda mobil telefonlarimizda turli xil budjetlashtirsh ilovalari mavjud.

Budjetlashtirish ilovalari — bu foydalanuvchilarga o'z moliyaviy resurslarini rejalashtirish, daromad va xarajatlarni kuzatish, sarf-xarajat tahlilini yuritish hamda moliyaviy intizomni shakllantirish imkonini beruvchi mobil yoki veb asosidagi raqamli dasturlardir. Ushbu ilovalar odatda intuitiv interfeys, avtomatik toifalash, statistik tahlillar va grafiklar orqali foydalanuvchining moliyaviy holatini aniq va tushunarli tarzda aks ettirib boradi.

Budjetlashtirish ilovalari foydalanuvchining kunlik, oylik yoki yillik byudjet doirasida xarajatlar chegarasini belgilash, moliyaviy maqsadlar qo'yish (masalan, jamg'arish, qarzdorlikdan chiqish) hamda sarf-harajatlarni toifalar bo'yicha tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, yoshlar va talaba qatlamlari uchun bu ilovalar moliyaviy savodxonlikni oshirish, shaxsiy mablag'larni samarali boshqarish va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

XULOSA.

Hozirgi raqamli asrda moliyaviy savodxonlik va shaxsiy moliyaviy boshqaruvni rivojlantirishda mobil ilovalarning ahamiyati ortib bormoqda. Olib borilgan tahlillar natijasida, talabalar orasida **mobil banking**, **byudjetlashtirish**, **sarmoya va xarajatlarni nazorat qilish** hamda **raqamli to'lov tizimlari** kabi ilovalardan foydalanish holati sezilarli darajada o'sib borayotgani aniqlandi. Bu ilovalar nafaqat moliyaviy axborotga tezkor kirishni ta'minlaydi, balki



talabalarning o‘z xarajatlarini tartibga solish, tejash odatlarini shakllantirish va moliyaviy intizomni oshirishga yordam bermoqda.

Moliyaviy ilovalar talabalarga quyidagi yo‘nalishlarda muhim yordam ko‘rsatmoqda:

- ✓ **Budgetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish:** Ilovalar orqali foydalanuvchilar o‘z daromad va xarajatlarini toifalar bo‘yicha ajratib, aniq hisobotlar oladi. Masalan, *Monefy*, *Money Lover*, *Spendee* kabi ilovalar foydalanuvchiga infografika ko‘rinishida sarf-xarajat tahlilini taklif qiladi.
- ✓ **Bank xizmatlariga tezkor kirish:** Mobil banking ilovalari (masalan, *Apelsin*, *Payme*, *Click*) orqali talabalar hisoblarida mavjud balansni kuzatish, to‘lovlarni amalga oshirish, kommunal xizmatlar uchun to‘lov qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularni moliyaviy mustaqillikka undaydi.
- ✓ **Moliyaviy savodxonlik va ta’lim:** Ayrim ilovalar (masalan, *Finlit*, *Zeta*, *Revolut Youth*) foydalanuvchilarga moliyaviy tushunchalar, tejash strategiyalari, kredit va investitsiya haqida ma’lumotlar taqdim etadi. Bu esa nafaqat foydalanuvchining amaliy ko‘nikmalarini, balki bilim darajasini ham oshiradi.
- ✓ **Investitsiya qilish va mablag‘ni ko‘paytirish:** Talabalar orasida *Binance*, *Investing.com*, *TradingView* kabi ilovalardan foydalanish holati ham ortib bormoqda. Biroq bu yo‘nalishda yuqori risklar mavjudligi sababli, moliyaviy bilim yetishmasligi muhim muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda.
- ✓ **Moliyaviy xavfsizlik:** Ilovalarda ikki bosqichli autentifikatsiya, biometrik tekshiruvlar, SMS yoki xabarnomalar orqali ogohlantirish tizimlarining mavjudligi talabalar orasida firibgarlik holatlarining oldini olishda muhim rol o‘ynamoqda.



Xulosa qilib aytganda, moliyaviy mobil ilovalar talabalarning moliyaviy hayotini yengillashtirishda, ularni mustaqil moliyaviy qarorlar qabul qilishga yo‘naltirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ilmiy va amaliy yondashuv asosida bu ilovalarni takomillashtirish orqali nafaqat shaxsiy moliyaviy boshqaruv, balki milliy iqtisodiy savodxonlik darajasi ham oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. OECD (2023). *Financial literacy and youth: Policy guidance.*
<https://www.oecd.org/financial/education>
2. Statista (2024). *Number of mobile banking users worldwide.*
<https://www.statista.com/statistics/>
3. Adebayo, A. et al. (2022). *Mobile finance apps and financial behavior of students in Africa.* Journal of Financial Technology.
4. Cybersecurity Ventures (2023). *Mobile App Security Trends.*
<https://cybersecurityventures.com>
5. World Bank (2023). *Digital Financial Services in Developing Economies.* <https://www.worldbank.org>
6. OECD (2020). *Digital Financial Literacy: A Framework for OECD/INFE.* <https://www.oecd.org/financial/education/digital-financial-literacy.pdf>
7. <https://www.oecd.org/financial/education/digital-financial-literacy>
8. <https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment>